



## FACTORS INFLUENCING STUDENTS' SOCIAL ADAPTATION AND THE LEVEL OF COMMUNICATION SKILLS.

**Akhmedova Khosiyat Nasibovna**

Distance education Psychology major 25-14 student

Andijan Branch of Kokand University

**Khalimjanov Abdukunduz Rahimjon o'gli**

Teacher of the Department of "Computer Engineering and Digital  
Technologies"

Andijan Branch of Kokand University

Email: [khalimjonov1234@gmail.com](mailto:khalimjonov1234@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17340319>

### ARTICLE INFO

Received: 01<sup>st</sup> October 2025

Accepted: 07<sup>th</sup> October 2025

Online: 08<sup>th</sup> October 2025

### KEYWORDS

Communication skills,  
socialization of students,  
pedagogical functions, class  
team

### ABSTRACT

*This article discusses the factors affecting the social coordination of students and communication skills. It discusses the functions of communication in the process of socialization of students as a pedagogical problem. The characteristics of teachers related to the exchange of information are related to their ability to integrate into the classroom community. Any events and incidents occurring in the classroom community should be under the control of teachers, and their consequences should be quickly and fairly analyzed and prevented by teachers.*

## O'QUVCHILARNING IJTIMOYIY MUVOFIQLASHUVIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR. MULOQOT KO'NIKMALARI DARAJASI.

**Axmedova Xosiyat Nasibovna**

Masofaviy ta'lim Psixologiya yo'nalishi 25-14 talabasi

Qo'qon universiteti Andijon Filiali

**Xalimjanov Abduqunduz Rahimjon o'g'li**

"Kompyuter Injining va raqamli texnologiyalar" kafedrasida o'qituvchisi

Qo'qon universiteti Andijon Filiali

Email: [xalimjonov1234@gmail.com](mailto:xalimjonov1234@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17340319>

### ARTICLE INFO

Received: 01<sup>st</sup> October 2025

Accepted: 07<sup>th</sup> October 2025

Online: 08<sup>th</sup> October 2025

### KEYWORDS

Muloqot ko'nikmasi,  
o'quvchilarning ijtimoiylashuvi,  
pedagogik funksiyalar, sinf  
jamoasi

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada o'quvchilarning ijtimoiy muvofiglashuviga ta'sir etuvchi omillar va muloqot ko'nikmasi. Bunda o'quvchilarning ijtimoiylashuv jarayonida muloqot funksiyalari pedagogik muammo sifatida haqida yozilgan. O'qituvchilarning o'zaro axborot almashishi bilan bog'liq xususiyatlari, uning sinf jamoasiga singib keta olish qobiliyati bilan bog'liq. Sinf jamoasida ro'y berayotgan har qanday voqea va hodisalar*



*o'qituvchilar nazoratida bo'lishi, ularning oqibatini o'qituvchilar tez va adolatli tahlil qilishi va oldini olishi lozim.*

O'quvchilarning ijtimoiy muvofiqlashuviga oila muhiti, maktabdagi muhit, tengdoshlar bilan munosabatlar, o'quvchining shaxsiy xususiyatlari va muloqot ko'nikmalari darajasi kabi omillar ta'sir qiladi. Muloqot ko'nikmalari — bu ijtimoiy o'zaro ta'sirning muhim jihati bo'lib, uning darajasi o'quvchining jamiyatga moslashuvini belgilaydi. Inson hayotining zamonaviy sharoitida odamlar o'rtasidagi shaxslararo o'zaro munosabatlarning samaradorligi katta ahamiyatga ega. Shaxslararo muloqot har qanday inson faoliyatining asosiy bo'g'inidir. Hozirgi vaqtda inson shaxsiga, uning turli xil faoliyat turlarining samaradorligini ta'minlaydigan xususiyatlariga qiziqish sezilarli darajada oshdi. Jamiyat yangi, doimiy o'zgaruvchan hayot sharoitlariga moslasha oladigan funktsional, faol, ochiq odamlarga talabga ega. Zamonaviy o'qituvchi ijtimoiy psixolog bo'lmasligi mumkin emas. Shuning uchun ham o'quvchilar to'g'risidagi o'zaro munosabatlarni yo'lga sola olishi, bolalar jamoasida ijtimoiy – psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi zarurdir.

Ijtimoiy muvofiqlashuvga ta'sir etuvchi omillar

• **Oilaviy sharoit:**

Oila a'zolari bilan ochiq muloqot, ota-onaning bola tarbiyasiga e'tibori va oiladagi muammolarning hal etilishi ijtimoiy moslashuvga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

• **Maktab muhiti:**

Maktabdagi ijtimoiy muhit, o'qituvchilar bilan munosabatlar, sinfdagi o'zaro munosabatlar va maktabdagi qoidalar o'quvchining moslashuvida muhim rol o'ynaydi.

• **Tengdoshlar bilan munosabat:**

Tengdoshlar bilan do'stona aloqalar o'rnatish, ularning guruhiga qo'shila olish, qabul qilinish hissi ijtimoiy muvofiqlashuvni mustahkamlaydi.

• **Shaxsiy xususiyatlar:**

O'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchi, xarakter xususiyatlari (masalan, qat'iyatlilik, qo'rqmaslik, uyatchanlik) va Emotsional intellekt darajasi ham muhim omillardir.

Muloqot ko'nikmalari darajasi

1. **Gapni to'g'ri tushunish va ifodalash:**

O'quvchilarning muloqotni qanchalik yaxshi tushunishi va o'z fikrlarini aniq va tushunarli tarzda ifodalay olishi ijtimoiy o'zaro ta'sirga bog'liq. Buni o'rganish va rivojlantirish uchun o'qituvchilar va ota-onalarning yordami zarur.

2. **Tinglash qobiliyati:**

Yaxshi muloqot qilish uchun tinglash qobiliyati ham muhim. O'quvchi boshqalar nima demoqchi ekanligini yaxshi tushunishi, suhbatdoshga hurmat ko'rsatishi kerak.

3. **G'amxo'rlik va empatiya:**

Boshqalar bilan muloqotda g'amxo'rlik va empatiya ko'rsatish ijtimoiy munosabatlarni rivojlantiradi, o'quvchi boshqalar bilan yaxshi munosabatda bo'lishga yordam beradi.



#### 4. **Muloqot uslubi:**

Har bir o'quvchi turli muloqot uslubiga ega bo'lishi mumkin. Bu uslubning ijobiy bo'lishi yoki salbiy oqibatlariga olib kelishi ko'nikmalarga bog'liq bo'ladi.

Pedagogik muloqot tuzilishi jihatidan o'qituvchi ijodkorligining noyob namunasidir. Pedagog olimlar o'qituvchining o'quvchilar bilan muloqotiga ko'plab tavsiflarni ilmiy asarlarida bayon etsalarda, muloqot avvalo, o'qituvchining shaxsiy psixologik xususiyati sifatida namoyon bo'ladi. Olimlar esa, muloqot uchun o'qituvchiga yo'nalish beradi xolos. Jumladan, rus pedagogi V.A.Kan-Kalikning fikricha, o'qituvchining pedagogik muloqoti tuzilishi quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi: Modellashtirish bosqichida auditoriyaning barcha andozalarga javob berishi, har bir o'quvchining psixologik xususiyatlarini o'rganishi, ta'lim-tarbiyaviy jarayonda uchrashi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar dinamikasini oldindan ko'ra olish va bartaraf etish, muloqotning o'zaro hamkorlik asosida qurilishi, ya'ni muloqot o'qituvchi shaxsiga emas, balki o'quvchi shaxsiga ham mos kelishini ta'minlash zarur. Kommunikativ aloqa bosqichida sinf jamoasini o'zaro muloqotga tez jalb etadigan suhbat texnikasini puxta bilish, ularning barcha qiziqishlariga javob bera olish, erkin fikr bildirishlariga imkoniyat yaratish va o'quvchilar ongiga ijobiy ta'sir etishning turli usullarini qo'llash metodlarini egallash lozim. Pedagogik jarayon bosqichida o'qituvchining faoliyati bevosita ta'lim-tarbiyaviy ishlarni ma'lum bir yo'nalishga solish, o'quvchilar tashabbusini qo'llab quvvatlash, sinf jamoasining rasmiy va norasmiy liderlari bilan adolatli muloqotni tashkil etish, o'z fikrlarini jamoa fikrlari bilan real sharoitga moslashtira olish ko'nikmalarini yaratish kabi faoliyat olib boriladi.

Natijalar tahlilida o'qituvchi o'z faoliyatiga xolisona baho berishi, yutuq va kamchiliklarni inobatga olib, kelgusi ta'lim-tarbiyaviy faoliyatida tanqidiy qo'llashni bilishi lozim, ushbu yo'nalishda maqsad, reja va natijalarning birligi ta'minlanadi, o'quv-tarbiya jarayonida o'qituvchi o'quvchilar bilan muloqotni tashkil etish va boshqarishda rahbarlikni, tashabbuskor bo'la olishni bilishi kerak. Birinchi prezidentimiz Muloqot odobi o'quvchilikdan shakllanadi. O'quvchi ulg'ayishi bilan muloqot odobi darajasi kengayib boradi. Muloqot odobi kishi faoliyatini belgilovchi jarayon bo'lib, uni barcha xatolardan saqlaydi. Natijada uning xulqiy go'zalligi ortadi. Islom dinida belgilangan muloqot odobi mezonlari umuminsoniy muloqot odobi mezonlari bilan chambarchas bog'liqdir. Chunonchi, «Qur'oni Karim» Inson kamolotining asosiy dasturidir. Unda insonni yuqori cho'qqiga ko'tarishga ahamiyat berilgan. «Qur'oni Karim» ning har bir oyatida kishining kundalik hayotida muloqot odobi mezonlariga og'ishmay amal qilishini ko'rsatadi. Muloqot odobi deganda biz tarbiyali degan tushunchani anglaymiz. Muomalali kishi el o'rtasida e'zozlidir. Muloqot odobi insoniy fazilat kishi qadrini baland qiluvchi qimmatli sifatidir.

U ta'lim - tarbiyaning asl mevasidir. Aqlning suyanchig'i hisoblangan muloqot odobi barcha fazilatlarining sha'ni va xikmatidir. Dono xalqimizning "odab bozorda sotilmas", "Muloqot odobi kishi uchun ulug'lik va fazilatdir", "Muloqot odobi yo'qning aqli ham yo'q" - kabi naqllari bejiz aytilmagan. Shunday ekan, aql va muloqot odobi bir-biriga bog'liq, insonda xar ikkovi mavjud bo'lsagina o'sha inson kamol topadi. Shaxslararo munosabatlar o'quvchining birgalikdagi ta'lim faoliyati tabiatiga va o'qituvchining (o'qituvchining)



pedagogik faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Asosiy hamdardlik (antipatiya), qabul qilish (rad etish), qiymat yo'nalishlarining mos kelishi yoki ularning farqlanishi, kognitiv va umuman individual faoliyat uslublarining mos kelishi yoki farqi (muloqot) va boshqalar odamlarning o'zaro munosabatlarini osonlashtirishi yoki sezilarli darajada murakkablashtirishi mumkin.

### **Xulosa**

Xulosa qilib shuni aytish joizki, o'qituvchining ozodaligi, ixchamligi, uning pokizaligi, sarishta- saranjonligi, uning qiliqlari, o'zining chiroylik tutishi, uning qaddi - qomati va yurish - turishlari o'quvchilarda juda yaxshi taassurot qoldiradi. O'qituvchilardagi bu kabi ijobiy xislatlarning mavjudligi o'quvchilar bilan munosabatda psixologik to'siqlarni bartaraf etishga ular bilab do'stona muloq o'rnatishga yordam beradi. Pedagogik muloqot metodlari ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib, ularni to'g'ri tanlash va samarali qo'llash o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

### **Adabiyotlar:**

1. Nusratova, H. (2021, October). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH: DOI: 10.53885/edinres. 2021.80. 81.021
2. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022. PF-60.
3. Ravshanovna, X. S. (2023). Pedagogik muloqot o'quv jarayoni samaradorligini oshirishning muhim omili. Journal of Universal Science Research, 1(8), 131-139.
4. Axmedov, A. Y., & Sherqo'ziyeva, Z. F. (2023). Pedagogik muloqotning kommunikativ asoslari. O'zbekistonda Fanlararo Innovatsiyalar Ilmiy Tadqiqotlar Jurnali, 2(19), 425-431